



THE MASTER–APPRENTICE SYSTEM AND THE SOCIAL TRADITIONS OF THE ARTISAN COMMUNITY IN THE RISHTON POTTERY SCHOOL

Bobir Odilov

Associate Professor, PhD

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Rishton pottery, master–apprentice system, artisan community, professional traditions, cult of the pir, Arvohi Pir ritual, vocational education, craftsmanship as a social institution.

Received: 19.11.25

Accepted: 20.11.25

Published: 21.11.25

Abstract: This article analyzes the master–apprentice system formed in the Rishton pottery school, as well as the social and ritual traditions of the potters' community, based on historical and ethnographic materials. The study examines the criteria for selecting apprentices, the stages of vocational training, the authorization granted by the master, as well as the professional rituals and belief systems practiced within the potters' community. It also explores the rituals related to the cult of the patron saint (pir) that united the artisan community and the traditions that strengthened professional solidarity. The research findings contribute to identifying the social mechanisms of transmitting professional knowledge and experience in Rishton pottery.

RISHTON KULOLCHILIK MAKTABIDA USTOZ–SHOGIRD TIZIMI VA HUNARMANDLAR JAMOASINING IJTIMOIIY AN'ANALARI

Bobir Odilov

PhD

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Rishton kulolchiligi, ustoz–shogird tizimi, hunarmandlar jamoasi, kasbiy an'analar, pir kulti, Arvohi pir marosimi, kasbiy ta'lim, hunarmandchilik ijtimoiy instituti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Rishton kulolchilik maktabida shakllangan ustoz–shogird tizimi hamda kulollar jamoasining ijtimoiy va marosimiy an'analari tarixiy-etnografik materiallar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda shogird tanlash

mezonlari, hunarga o'rgatish bosqichlari, ustoz tomonidan beriladigan ruhsat, shuningdek, kulollar jamoasida amal qilgan kasbiy marosimlar va e'tiqodiy qarashlar yoritiladi. Shuningdek, hunarmandlar jamoasini birlashtirgan pir kultiga oid marosimlar hamda kasbiy birdamlikni mustahkamlovchi an'analar ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Rishton kulolchiligida kasbiy bilim va tajriba uzatilishining ijtimoiy mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi.

СИСТЕМА «УСТОЗ–ШОГИРД» (МАСТЕР–УЧЕНИК) И СОЦИАЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ СООБЩЕСТВА РЕМЕСЛЕННИКОВ В РИШТАНСКОЙ ШКОЛЕ КЕРАМИКИ

Бобир Одиллов

Доцент, PhD

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: риштанская керамика, система «мастер–ученик», сообщество ремесленников, профессиональные традиции, культ пира, обряд «Арвохи пир», профессиональное образование, ремесло как социальный институт.

Аннотация: В данной статье на основе историко-этнографических материалов анализируются система «устоз–шогирд» (мастер–ученик), сформировавшаяся в Риштанской школе керамики, а также социальные и обрядовые традиции сообщества гончаров. В исследовании рассматриваются критерии отбора учеников, этапы профессионального обучения, разрешение, предоставляемое мастером, а также профессиональные обряды и религиозные представления, существовавшие в гончарной среде. Освещаются также обряды, связанные с культом пира, объединявшие ремесленников, и традиции, укреплявшие профессиональную солидарность. Результаты исследования способствуют выявлению социальных механизмов передачи профессиональных знаний и опыта в риштанском гончарном ремесле.

Kirish. Markaziy Osiyo xalqlari tarixida hunarmandchilik nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, ma'naviy qadriyatlari va madaniy an'analarini shakllantiruvchi muhim omillardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, kulolchilik hunari uzoq asrlar davomida aholining kundalik turmushida keng qo'llaniladigan buyumlar ishlab chiqarish bilan

birga, jamoaviy mehnat, kasbiy tajriba almashinuvi hamda avlodlar o'rtasida bilim uzatilishining muhim tizimini ham yuzaga keltirgan.

Farg'ona vodiysidagi kulolchilik markazlari orasida Rishton alohida mavqega ega bo'lib, bu hududda kulolchilik nafaqat ishlab chiqarish sohasi, balki mahalliy aholi ijtimoiy hayotining muhim qismi sifatida shakllangan. Ko'plab oilalar avloddan-avlodga kulolchilik bilan shug'ullanib kelganligi sababli, bu yerda kasbiy an'analar mustahkam saqlanib qolgan. Natijada Rishton kulollari jamoasi o'ziga xos ichki tartib-qoidalar, kasbiy munosabatlar va marosimiy an'analarni shakllantirgan.

Hunarmandchilik rivojlangan jamiyatlarda kasb sirlarini uzatish masalasi alohida ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, kulolchilikda mahsulot sifati ko'p jihatdan ustaning shaxsiy tajribasiga bog'liq bo'lganligi sababli bilimlarni faqat amaliy faoliyat jarayonida, ustoz rahbarligida o'rganish mumkin edi. Shu bois Rishton kulolchilik maktabida ustoz–shogird tizimi muhim ijtimoiy institut sifatida shakllangan. Ushbu tizim nafaqat kasbiy bilimlarni uzatish, balki yosh hunarmandlarni jamoaga moslashtirish, ularda kasbiy mas'uliyat va intizomni shakllantirish vazifasini ham bajargan.

Rishton kulollari jamoasida kasbiy faoliyat diniy va e'tiqodiy qarashlar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan. Hunarmandlar o'z kasbining homiy-pirlari mavjudligiga ishonib, ularning ruhiy madadini muhim deb bilganlar. Kasbiy marosimlar, umumiy yig'inlar va ziyorat tadbirlari esa ustalar o'rtasidagi birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Bu jarayonlar hunarmandlar jamoasining ichki birligini saqlashda muhim rol o'ynagan.

Shuningdek, shogirdning to'laqonli usta sifatida tan olinishi ham oddiy jarayon bo'lmagan. Buning uchun u nafaqat texnologik jarayonlarni puxta egallashi, balki jamoa tomonidan tan olinishi, kasbiy marosimlardan o'tishi ham zarur bo'lgan. Shu jihatdan Rishton kulolchilik maktabida ustoz–shogird tizimi kasbiy tayyorgarlik bilan bir qatorda ijtimoiy maqomni belgilovchi mexanizm vazifasini ham bajargan.

Mazkur maqolaning maqsadi Rishton kulolchilik maktabida shakllangan ustoz–shogird tizimi hamda kulollar jamoasida amal qilgan ijtimoiy va marosimiy an'analarni tarixiy-etnografik materiallar asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda shogird tanlash mezonlari, hunarga o'rgatish bosqichlari, kasbiy marosimlar, homiy-pir bilan bog'liq qarashlar hamda hunarmandlar jamoasining ichki munosabatlari yoritiladi.

Tadqiqot natijalari. Rishton kulollari jamoasida kasbiy bilim va tajriba uzatilishining ijtimoiy mexanizmlarini aniqlash hamda hunarmandchilikni madaniy meros sifatida saqlash jarayonlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Shogird tanlash va hunarga qabul qilish an'analari

Rishton kulolchilik maktabida ustoz–shogird tizimi hunarmandchilikni avloddan-avlodga uzatishda asosiy mexanizm hisoblangan. Bu jarayon oddiygina kasb o'rganish emas, balki yosh avlodni hunarmandlar jamoasiga qabul qilish, ularga kasbiy va axloqiy mas'uliyatni singdirish bilan bog'liq murakkab ijtimoiy jarayon bo'lgan. Shu sababli shogirdni tanlash masalasiga ustalar alohida e'tibor bilan yondashganlar.

Rishtonlik mashhur kulol ustalarning ta'kidlashicha, hunarga qabul qilinayotgan bolaning eng muhim sifati uning loyni his qila olish qobiliyati hisoblangan. Ustalar nazarida loy bilan ishlash oddiy jismoniy mehnat emas, balki sezgi va sabr talab qiladigan jarayon bo'lgan. Shuning uchun ham shogird tanlashda avvalo bolaning loy bilan ishlashga moyilligi sinab ko'rilgan.

Ba'zan ustalar yoshlarni sinovdan ham o'tkazganlar. Eng ko'p uchraydigan sinov usullaridan biri shogirdga avval ko'rsatib qo'yilgan buyum shaklini ko'zi bog'langan holda dastgohda qayta yasash topshirig'i bo'lgan. Bunday sinov yoshning shaklni eslab qolish qobiliyatini, qo'l harakatlarining sezgirligini va diqqatini aniqlashga yordam bergan. Agar shogird buyumning asosiy shaklini to'g'ri chiqarishga muvaffaq bo'lsa, unda hunarga moyillik bor deb hisoblangan.

Rishtonda ko'pincha kulolchilik sulolaviy hunar sifatida rivojlanganligi sababli ko'p hollarda bolalar otasi yoki qarindoshlari ustaxonasida ish boshlagan. Biroq bu ularning darhol kulolga aylanishini anglatmagan. Hatto ustaning o'z farzandi ham hunarning barcha bosqichlarini boshidan o'tashi kerak bo'lgan. Bu esa kasbning qadri va ustozlik an'anasining mustahkam saqlanishiga xizmat qilgan.

Hunarga qabul qilingan shogird dastlab buyum yasashga qo'yilmagan. Avvalo u ustaxonadagi yordamchi ishlarni bajargan. Loy tashish, uni suv bilan aralashtirish, tozalash, tayyor loyni bo'laklarga ajratish kabi ishlar shogirdning dastlabki vazifalari hisoblangan. Bu jarayon bir tomondan yoshni mehnatga o'rgatsa, ikkinchi tomondan u loyning xususiyatlarini amaliy jihatdan o'rganib borgan.

Shogird ustaxona muhitiga moslashishi ham muhim hisoblangan. Chunki kulolchilik ustaxonasi faqat ish joyi emas, balki ustalar doimiy muloqot qiladigan, tajriba almashadigan va jamoaviy mehnat olib boradigan makon bo'lgan. Shogird ustalarning ish uslubini kuzatib, asta-sekin jarayon mohiyatini anglay boshlagan.

Vaqt o'tishi bilan shogirdga kichikroq vazifalar topshirila boshlagan. Masalan, dastlab oddiy shakldagi kichik buyumlarni yasashga ruxsat berilgan. Bu jarayon odatda ustaxona ishlaridan so'ng, kechqurun charx bo'sh paytda amalga oshirilgan. Shogirdning dastlabki ishlari ko'pincha sotuvga chiqarilmagan, balki mashq sifatida saqlangan yoki qayta ishlangan.

Rishton kulollari orasida shogirdning dastgohga birinchi bor mustaqil o'tirishi alohida voqea sifatida qaralgan. Bu jarayonda usta hunarmandlar homiy-piridan madad so'rab, maxsus duo

qilgan. Usta odatda: “Bismillohi rahmonir rohim, yo hazrati piri Kulol, tarbiya qiling”, deb murojaat qilgan. Bu marosim shogirdning hunarga rasman kirib kelishini bildirgan.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, Rishton kulolchilik maktabida shogird tayyorlash uzoq vaqt talab qilgan. Yosh hunarmand asta-sekin loy tayyorlash, buyum shakllantirish, quritish, sir berish va xumdon jarayonlarini o’rganib borgan. Har bir bosqichni puxta egallamaguncha keyingi jarayonga o’tkazilmagan.

Bu jarayon shuni ko’rsatadiki, Rishton kulolchiligida shogird tanlash va hunarga qabul qilish nafaqat texnik ko’nikmalarni o’rgatish, balki yoshlarni kasbiy muhitga moslashtirish, sabr-toqat va mehnatsevarlikni singdirishga qaratilgan tizimli jarayon bo’lgan.

Ustoz–shogird ta’limining bosqichlari va kasbiy shakllanish jarayoni

Rishton kulolchilik maktabida shogird tayyorlash jarayoni uzoq davom etadigan, bosqichma-bosqich shakllangan amaliy ta’lim tizimi asosida olib borilgan. Bu tizimda shogird birdaniga buyum yasashga qo’yilmagan, balki usta rahbarligida kulolchilik jarayonining barcha bosqichlarini asta-sekin egallab borgan. Natijada yosh hunarmand kasbning har bir nozik jihatini amaliy faoliyat jarayonida o’zlashtirgan.

Ta’limning dastlabki bosqichida shogird ustaxonada yordamchi sifatida ishlagan. Bu davrda u asosan loy tayyorlash, xom-ashyoni tozalash, suv tashish, tayyor buyumlarni quritish joylariga olib borish kabi ishlarni bajargan. Bir qarashda oddiy ko’ringan bu vazifalar aslida shogirdni kulolchilik jarayonining muhim qismi bilan tanishtirgan. U loyning qaysi holati buyum yasashga qulay ekanini, qachon u haddan tashqari yumshoq yoki qattiq bo’lib qolishini amaliy tajriba orqali tushunib borgan.

Keyingi bosqichda shogirdga loydan tayyorlangan bo’laklarni dastgohga qo’yish, usta ishlayotgan paytda yordam berish kabi vazifalar topshirilgan. Shu jarayonda usta shogirdga qo’l harakatlari, loyni markazga to’g’ri joylashtirish, buyum devorini bir maromda ko’tarish kabi muhim sirlarni asta-sekin o’rgata boshlagan.

Shogirdning mustaqil ravishda kichik buyumlar yasashi ta’limning navbatdagi bosqichi hisoblangan. Odatda u dastlab sodda shakldagi kichik kosalar yoki oddiy idishlar tayyorlashdan boshlagan. Bu mashqlar ko’pincha ustaxona ishlaridan so’ng, kechqurun charx bo’sh paytda amalga oshirilgan. Shogirdning ilk buyumlari ko’pincha qayta ishlangan yoki saqlab qo’yilgan, chunki ularning sifati hali savdoga chiqarish darajasida bo’lmagan.

Vaqt o’tishi bilan shogird buyum shakllantirish jarayonida tobora mustaqillashgan. Usta esa uning ishini kuzatib, xatolarini ko’rsatgan va kerakli maslahatlar bergan. Bu bosqichda shogird buyum devorining qalinligini bir xil saqlash, buyum og’irligini to’g’ri taqsimlash, shaklni muvozanatda ushlash kabi murakkab ko’nikmalarni egallagan.

Shogird tayyorlayotgan buyumlar asta-sekin sotuvga chiqarila boshlagan payt uning kasbiy o'sishidagi muhim burilish davri hisoblangan. Bu shogird mehnatining ustoz tomonidan tan olinganini bildirgan. Shu bilan birga, shogird ham o'z ishining natijasini ko'rib, mas'uliyatni chuqurroq his qila boshlagan.

Keyingi bosqichda shogird buyumlarni bezash, rang berish va sir tayyorlash jarayonlarini o'rgangan. Bu jarayonlar katta tajriba talab qilganligi sababli ustalar bu sirlarni faqat ishga jiddiy yondashgan shogirdlargagina o'rgatganlar. Ranglarning nisbatini to'g'ri tanlash, naqshni buyum shakliga mos joylashtirish kabi nozik jihatlar ko'p yillik mashq orqali o'zlashtirilgan.

Shogirdning xumdon jarayoniga jalb qilinishi esa uning deyarli yetuk hunarmand darajasiga yetganini bildirgan. Chunki xumdonni tayyorlash, buyumlarni to'g'ri joylashtirish va pishirish jarayonini nazorat qilish kulolchilikdagi eng mas'uliyatli ish hisoblangan. Bu jarayonda yo'l qo'yilgan xatolik ko'plab buyumlarning yaroqsiz bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin edi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, shogirdning usta darajasiga yetishi faqat texnik ko'nikmalarni egallash bilan belgilanmagan. U jamoada o'zini tutish, boshqa ustalar bilan munosabat o'rnatish, mijozlar bilan muomala qilish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni ham egallashi zarur bo'lgan. Shuning uchun shogird tayyorlash jarayoni kasbiy ta'lim bilan bir qatorda ijtimoiy tarbiya vazifasini ham bajargan.

Umuman olganda, Rishton kulolchilik maktabida ustoz–shogird tizimi yosh hunarmandni oddiy yordamchidan mustaqil ustaga aylantirishga xizmat qilgan murakkab va uzoq muddatli ta'lim jarayoni bo'lgan. Aynan shu tizim tufayli kulolchilik an'analari uzluksiz davom etib, avloddan-avlodga yetib kelgan.

Hunarmandlar jamoasida pir kulti va kasbiy marosimlar

Rishton kulolchilik maktabida hunarmandlar jamoasi nafaqat ishlab chiqarish faoliyati bilan, balki umumiy e'tiqodiy qarashlar va kasbiy marosimlar bilan ham birlashgan. Kulollarning kundalik faoliyati, ish jarayonlari va jamoaviy yig'inlari ko'pincha kasb homiy-pirlariga bo'lgan ishonch bilan bog'langan. Bu e'tiqodiy qarashlar hunarmandlar o'rtasida birdamlikni mustahkamlash, kasbiy an'analarni saqlash va yosh avlodni jamoaga moslashtirishda muhim rol o'ynagan.

Farg'ona vodiysidagi kulolchilik markazlari aholisi, jumladan, Rishton kulollari ham o'z kasbining homiy-piri sifatida Markaziy Osiyo hududida mashhur bo'lgan Bahovuddin Naqshband va Said Amir Kulolni e'tirof etganlar. Ayniqsa, bezakli idishlar tayyorlaydigan ustalar Bahovuddin Naqshband siymosiga alohida ehtirom bilan qaraganlar. XIX asr oxiri – XX asr boshlarigacha Rishton kulollari Buxorodagi ushbu ziyoratgohga borib, duo qilishni kasbiy an'ana sifatida davom ettirib kelganlar.

Biroq, vodiy kulolchiligida ayrim lokal e'tiqodiy qarashlar ham shakllangan. Masalan, tandir yasash bilan shug'ullanuvchi ustalar Said Amir Kulol obrazini "Mehri kulol" nomi bilan tilga olib, uni o'z kasbining homiysi deb bilganlar. Mahalliy aholi orasida ushbu pining qabri So'x tumanidagi Gul qishlog'ida joylashgan degan qarash ham keng tarqalgan. Bu esa mahalliy e'tiqodiy tasavvurlar kasbiy faoliyat bilan uyg'unlashib ketganini ko'rsatadi.

Hunarmandlar jamoasining birlashuvini ta'minlovchi asosiy marosimlardan biri "anjuman" yig'inlari bo'lgan. Bunday yig'inlarga ba'zan Buxorodan Said Amir Kulol avlodlari hisoblangan pirzodalar ham taklif etilgan. Marosim davomida hunarmandlar pir haqqi sifatida maxsus hadyalar ajratganlar. Rivoyatlarga ko'ra, Rishton kulollari har bir xumdon pishirishidan so'ng yetti dona buyumni pir haqqi uchun ajratib qo'yganlar.

Hunarmandlar orasida mehmonni hurmat qilish ham muhim an'ana hisoblangan. Agar ustaxonaga biror kishi tashrif buyursa, unga kichikroq buyum sovg'a qilishga harakat qilingan. Bu nafaqat mehmondo'stlik, balki kasbning barakasi boshqalarga ham ulashilishi kerak degan tushuncha bilan bog'liq bo'lgan.

Rishton kulollari yil davomida ikki marotaba umumiy saylga chiqishgan. Bu sayllar odatda muayyan ziyoratgohlarda o'tkazilib, ustalar qurbonlik marosimlarini amalga oshirganlar. Ko'pincha bunday yig'inlar Xo'ja Ilg'or boshi nomi bilan tanilgan ziyoratgohda o'tkazilgan. Saylga kelgan ustalar o'zlari bilan sopol buyumlar olib kelgan va marosim tugagach, ularni ziyoratgohga hadya sifatida qoldirganlar.

Bunday marosimlar ustalar o'rtasida o'zaro hurmat va birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, yosh shogirdlar ham bu yig'inlarda qatnashib, hunarmandlar jamoasining ichki muhitiga kirib borganlar.

Rishton kulollari faoliyatida haftaning ayrim kunlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ustalar dushanba va payshanba kunlarini xosiyatli deb hisoblaganlar, seshanba kuni esa ish boshlashdan tiyilishgan. Chorshanba kuni xumdon tayyorlash jarayonida maxsus taom pishirib, tutun chiqarish marosimi o'tkazilgan. Payshanba kuni buyumlar xumdonga joylashtirilib, pishirish boshlangan, juma kuni esa buyumlar sovitilgan.

Ushbu e'tiqodiy va marosimiy an'analar shuni ko'rsatadiki, Rishton kulollari jamoasi faqat ishlab chiqarish birlashmasi emas, balki umumiy qadriyatlar, urf-odatlar va e'tiqodiy qarashlar asosida birlashgan ijtimoiy muhit bo'lgan. Aynan shu omillar hunarmandchilik an'alarining uzoq vaqt davomida saqlanib qolishiga xizmat qilgan.

Shogirdning mustaqil usta sifatida tan olinishi va "arvohi pir" marosimi

Rishton kulolchilik maktabida shogirdning to'laqonli usta darajasiga yetishi faqat texnologik jarayonlarni o'rganish bilan yakunlanmagan. U hunarmandlar jamoasi tomonidan tan olinishi, kasbiy an'analarga muvofiq marosimlardan o'tishi va jamoaning teng huquqli a'zosiga aylanishi

ham zarur bo'lgan. Shu sababli shogirdning mustaqil usta sifatida e'tirof etilishi alohida marosimiy jarayon orqali amalga oshirilgan.

Ko'p hollarda shogird hunar sirlarini egallab, mustaqil ravishda buyum tayyorlashga qodir bo'lib qolganidan so'ng ham darhol usta sifatida tan olinmagan. Chunki Rishton kulollari jamoasida kasb faqat individual mahorat emas, balki jamoaga mansublik bilan ham belgilangani sababli yosh hunarmand jamoa oldida o'zini namoyon etishi kerak bo'lgan.

Buning uchun shogird maxsus marosim – “Arvohi pir” marosimini o'tkazishi talab etilgan. Bu marosim kulolchilik kasbining homiy-piriga bag'ishlab o'tkazilgan bo'lib, u yosh hunarmandning kasbiy hayotidagi muhim burilish nuqtasi hisoblangan. Marosim odatda ustalar jamoasi ishtirokida o'tkazilib, unda qurbonlik qilinishi, duolar o'qilishi va hunarmandlar uchun dasturxon yozilishi odat tusiga kirgan.

Marosim davomida yosh hunarmand ustalar oldida o'z mahoratini ko'rsatgan, ba'zan o'zi tayyorlagan buyumlarni hadya qilgan. Shu tariqa u kasbiy jamoa tomonidan tan olinib, mustaqil ishlash huquqiga ega bo'lgan. Marosimdan so'ng shogird hunarmandlar safida teng huquqli a'zo sifatida qabul qilingan.

Bu jarayonda ustozning fikri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Agar usta shogirdining yetarlicha tajriba orttirganiga va mustaqil ishlashga tayyorligiga ishonch hosil qilsa, marosim o'tkazishga ruxsat bergan. Demak, usta nafaqat hunar o'rgatuvchi, balki shogirdning kasbiy kelajagini belgilovchi shaxs ham hisoblangan.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, tashqaridan kelgan shogird uchun bu jarayon yanada murakkabroq bo'lgan. Chunki u nafaqat ustozning, balki butun jamoaning ishonchini qozonishi zarur edi. Shu sababli ayrim hollarda yosh hunarmand uzoq vaqt davomida ustozga yordamchi sifatida ishlab, o'zini jamoaga moslashtirganidan keyingina mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'lgan.

“Arvohi pir” marosimi shunchaki kasbiy rasmiyatchilik emas, balki hunarmandlar jamoasini birlashtiruvchi muhim ijtimoiy institut vazifasini bajargan. Bu marosim orqali ustalar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlangan, yosh hunarmandlar esa kasbning muqaddasligi va mas'uliyatini chuqurroq anglaganlar.

Shuningdek, marosim davomida yosh ustaga katta ustalar tomonidan nasihatlar berilgan. Unga kasb sirlarini saqlash, sifatsiz mahsulot tayyorlamaslik, mijozlar bilan halol muomala qilish kabi tavsiyalar berilgan. Shu tariqa kasbiy axloqiy me'yorlar ham avloddan-avlodga o'tib borgan.

Umuman olganda, Rishton kulolchilik maktabida shogirdning mustaqil usta sifatida tan olinishi nafaqat individual mahorat, balki jamoa tomonidan e'tirof etilish orqali amalga oshirilgan. Bu esa kulollarning kasbiy birligini mustahkamlashga va hunarmandchilik an'analarining uzluksiz davom etishiga xizmat qilgan.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Rishton kulolchilik maktabi nafaqat mahsulot tayyorlash texnologiyasi bilan, balki hunarmandlar jamoasida shakllangan ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan ham ajralib turadi. Bu hududda kulolchilik kasbi uzoq vaqt davomida oilaviy va sulolaviy an'ana sifatida rivojlangan bo'lib, kasbiy tajriba ustozdan shogirdga uzluksiz o'tib kelgan. Aynan ustoz–shogird tizimi kulolchilik maktabining saqlanib qolishi va rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan.

Maqolada tahlil qilingan materiallar shuni ko'rsatadiki, shogird tayyorlash jarayoni faqat texnik bilimlarni o'rgatish bilan cheklanmagan. Yosh hunarmand ustaxonada dastlab yordamchi sifatida ishlab, asta-sekin buyum tayyorlash jarayonining barcha bosqichlarini o'zlashtirgan. Bu jarayon davomida u nafaqat hunar sirlarini egallagan, balki mehnatsevarlik, sabr-toqat va kasbiy mas'uliyat kabi sifatlarni ham o'zida shakllantirgan.

Rishton kulollari jamoasida kasbiy faoliyat diniy va e'tiqodiy qarashlar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan. Hunarmandlar homiy-pirlariga e'tiqod qilish, umumiy yig'inlar, sayllar va marosimlar o'tkazish orqali jamoaviy birdamlikni mustahkamlab kelganlar. Bu marosimlar yosh hunarmandlarni kasbiy muhitga moslashtirish hamda ustalar o'rtasidagi o'zaro hurmat va hamjihatlikni saqlashga xizmat qilgan.

Shogirdning mustaqil usta sifatida tan olinishi ham alohida marosimiy jarayon orqali amalga oshirilgan. "Arvohi pir" marosimi yosh hunarmandning kasbiy hayotidagi muhim bosqichni ifodalagan. Ushbu marosim orqali u jamoaning teng huquqli a'zosiga aylangan va mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'lgan. Shu tariqa kasbiy jamoa tomonidan tan olinishi hunarmandning ijtimoiy maqomini ham belgilab bergan.

XX asr davomida sanoat mahsulotlarining keng tarqalishi va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasida an'anaviy ustoz–shogird tizimi ma'lum darajada zaiflashgan bo'lsa-da, Rishtonda kulolchilik an'analari to'liq yo'qolib ketmagan. Mustaqillikdan keyingi davrda hunarmandchilikka e'tibor kuchayib, ustalar faoliyati yana jonlangan. Hozirgi davrda ham ko'plab ustalar yoshlarni hunarga o'rgatib, an'anaviy bilimlarning davomiyligini ta'minlab kelmoqda.

Bugungi kunda Rishton kulolchilik maktabi nafaqat iqtisodiy faoliyat sohasi, balki milliy madaniy merosning muhim qismi sifatida ham e'tirof etilmoqda. Shu sababli ustoz–shogird tizimini saqlab qolish, yosh avlodni an'anaviy hunarlarga jalb qilish hamda hunarmandlar jamoasining tarixiy tajribasini ilmiy jihatdan o'rganish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, Rishton kulollari jamoasida shakllangan ustoz–shogird tizimi va kasbiy marosimlar hunarmandchilikning uzluksiz rivojlanishiga xizmat qilgan barqaror ijtimoiy mexanizm hisoblanadi. Ushbu tajriba nafaqat kulolchilik sohasida, balki boshqa an'anaviy hunarmandchilik turlarini o'rganishda ham muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Rishton tumani Rishton shahri. Sh. Yusupov bilan suhbat. 2024 yil.
2. Rozvadovskiy V.K. Opyt issledovaniya goncharnogo i nekotorykh drugikh kustarnykh promyslov v Turkestanskoy krae. – Tashkent, 1916. – 112 s.
3. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Rishton tumani Rishton shahri. Sh. Yusupov bilan suhbat. 2024 yil.
4. Martin F.R. Moderne Keramik von Centralasien. – Stockholm: G. Chelius, 1897. – 48 s.
5. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Rishton tumani Rishton shahri. Sh. Yusupov bilan suhbat. 2024 yil.
6. Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников: исследование преданий мусульманских тсекхов. – Ташкент, 1912. – 86 с.
7. Z.Yu. Esonov “Farg'ona vodiysi qishloq aholisining hunarmandchilik an'analari”/ “Classic”-2023 / 160 bet.
8. Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников: исследование преданий мусульманских тсекхов. – Ташкент, 1912. – 86 с.
9. Розвадовский В.К. Опыт исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае. – Ташкент, 1916. – 112 с.
10. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Rishton tumani Rishton shahri. Sh. Yusupov bilan suhbat. 2024 yil.
11. Z.Yu. Esonov “Farg'ona vodiysi qishloq aholisining hunarmandchilik an'analari”/ “Classic”-2023 / 160 bet.